

**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ISHINI REJALASHTIRISH, TAHLIL  
QILISH VA BAHOLASH FAOLIYATINI XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**Javliyev Atham Odiljon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 318-guruh kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401521>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining ishini rejalashtirish, tahlil qilish va baholash faoliyatini takomillashtirish. Ushbu faoliyatni takomillashtirish yuzasidan qilingan ishlar va ushbu faoliyatdagi xorijiy davlatlar tajribasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** profilaktika inspektorlarining ishini rejalashtirish, tahlil qilish, baholash, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, xorijiy davlatlar tajribasi, Rossiya Federatsiyasi tajribasi, Yaponiya tajribasi, Germaniya tajribasi.

**IMPROVEMENT OF PLANNING, ANALYSIS AND EVALUATION ACTIVITIES OF  
PREVENTION INSPECTORS BASED ON THE EXPERIENCE OF FOREIGN  
COUNTRIES**

**Abstract.** In this article, the improvement of planning, analysis and evaluation of the work of preventive inspectors. The work done to improve this activity and the experience of foreign countries in this activity are highlighted.

**Keywords:** planning, analysis, evaluation of the work of preventive inspectors, offense, early prevention of offenses, experience of foreign countries, experience of the Russian Federation, experience of Japan, experience of Germany.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЛАНИРОВАНИЯ, АНАЛИЗА И ОЦЕНКИ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА  
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается совершенствование деятельности по планированию, анализу и оценке работы профилактических инспекторов. Освещены проделанная работа по совершенствованию данной деятельности и опыт зарубежных стран в этой деятельности.

**Ключевые слова:** планирование, анализ, оценка работы инспекторов, правонарушение, раннее предупреждение правонарушений, опыт зарубежных стран, опыт Российской Федерации, опыт Японии, опыт Германии.

Turli davlatlarda ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati turlicha yo'llar, usullar bilan ta'minlanadi. Ushbu sohada har bir davlat o'ziga xos tajribaga ega bo'lib, ularni o'rganish hamda yurtimiz jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimiga tatbiq etish bugunning dolzarb talablaridan biridir. Ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida xorijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish bu masalaga tizimli yondashuvni talab qiladi.

Har bir davlatning huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash tizimi boshqa mamlakatlarnikidan muayyan xususiyati bilan ajralib turadi. Bu borada o'ziga xos tajriba Rossiya Federatsiyasida to'plangan.

Politsiyaning faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida, Rossiya Federatsiyasi IIV tarkibida 40 dan ortiq bosh boshqarma, departament, boshqarma va markazlar tashkil etilgan.

Ular orasida jamoat tartibini saqlash va Rossiya Federatsiyasi ijro hokimiyati sub'ektlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni ta'minlash bosh boshqarmasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bosh boshqarmasi, yirik xalqaro va ommaviy sport tadbirlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini amalga oshirsa, qolganlari zimmasidagi asosiy vazifalarini bajarish asnosida ma'lum bir vaqt va darajada ushbu faoliyatda ishtirok etadilar. Sobiq Ittifoq parchalanganidan so'ng Rossiya Federatsiyasida militsiya, keyin politsiyaning faoliyati ikki asosiy yo'nalishga ixtisoslashgan holda tashkil etildi. kriminal politsiya va jamoat xavfsizligi politsiyasi. Ushbu tizimga ko'ra kriminal politsiya jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan, jamoat xavfsizligi politsiyasi esa jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan

Yaponiyada aholi huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash politsiyaning quyi bo'g'inlari – politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda politsiya faoliyatini takomillashtirib borishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ularning jamoatchilik bilan hamkorligini kuchaytirib borishdan iboratligini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati politsiya faoliyatining dastlabki davrlaridan aholi turar joylarida politsiya post va punktlarining faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratgan. Natijada 1982 yilning boshidayoq mamlakatda 9446 ta politsiya posti va 6053 ta politsiya punkti aholiga xizmat ko'rsata boshlagan. Umuman olganda, ushbu post va punktlar Yaponiya politsiyasining o'zagi bo'lib, ularda politsiya xodimlarining 40% xizmat qiladi.

Yaponiyada huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda politsiya punktlari muhim rol o'ynaydi. Politsiya punktlaridagi xodimlarning fuqarolarga nafaqat huquq-tartibotni saqlashda, balki har qanday boshqa mushkul sharoitda ham irdam ko'rsatishi ularning aholi

o'rtasida hurmati oshishiga xizmat qilishi bilan birga, yapon va xorij olimlari tomonidan ham yuqori baholanmoqda

Politsiya tizimi Yevropada o'ziga xos ko'rinishda tashkil etilgan. Ushbu davlatlarda ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga xos tizim Germaniyada qaror topgan. Germaniya davlat boshqaruvi tizimida politsiya asosiy o'rinlardan birini egallagan. Mamlakatda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi markazlashmagan bo'lib, ushbu faoliyat asosan o'lkalar politsiyalarining zimmasiga tushadi.

Yuridik adabiyotlar tahlili va Germaniyaga amalga oshirilgan xizmat safari davomidagi bevosita o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, o'lkalar politsiyalari tartibni saqlash, kriminal, suv havzalarida tartibni saqlash, safarbarlik, Konstitutsiyani qo'riqlash politsiya idoralarini o'z ichiga olgan bo'lib, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi xizmat

Tartib saqlash politsiyasidir. Mamlakatning har bir o'lkasi o'z qonunchiligi va idoraviy hujjatlariga amal qilsa-da, tartib saqlash politsiyasining faoliyati hamma o'lkalarda bir xil: huquqbuzarliklarning oldini olish va kriminal politsiya yetib kelguniga qadar kechiktirib bo'lmas tezkor-qidiruv choratadbirlarini amalga oshirish; ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash; jamoat joylarida tartibni saqlash, alohida ahamiyatga ega inshootlar va hukumat binolarini qo'riqlab borish; yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash; ushlanganlarni konvoy qilish va sud muhokamalari vaqtida qo'riqlab turish; yong'in xavfsizligi, sanitariya-epidemiologiya va bozorlarda savdo qilish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish; pasport tizimini nazorat qilish; qimorxonalar, lotereya va totalizatorlarda qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish; o'rmonni qo'riqlash; mehmonxona, restoran, bar va kazinolarda qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish; mahalliy fuqaro mudofaasini amalga oshirish; qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarni nazorat qilish kabilardan iborat. Germaniya politsiyasining profilaktika faoliyatini amalga oshiruvchi eng quyi tuzilmalari tartibni saqlash punktlari hisoblanadi. Ular turli joylarda turlicha: «Bosh politsiya vaxtalari», «Politsiya vaxtalari», «Politsiya stansiyalari», «Politsiya postlari», kabi nomlanishi mumkin. Ushbu tuzilmalar ham tayanch punktlari singari, kechayu Kunduz faoliyat ko'rsatadi.

Yuqoridagi tajribadan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" qonunida quyidagi tahrirda kiritilishi taklif etildi:

**Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy yo'nalishlari:**

– jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta'minlash;

– huquqbuzarliklarni oldini olish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishda ishtirok etish;

– huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktika ishlarini olib borish;

– huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxslarni ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashva himoyaga muhtoj fuqarolarni aniqlash, shuningdek, ularga zarur yordam ko‘rsatish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslar, jazoga hukm qilingan shaxslar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish sub’ektlarining o‘zaro hamkorligini tashkil etish va jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash;

– voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbuzarliklarning oldini olish;

– giyohvandlik vositalari, alkogolizm va taksikomaniya huquqbuzarliklari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olish va jamiyatga xos bo‘lmagan huquqbuzarliklarga qarshi kurush ishlarini olib borish;

– jinoyatchilikning oldini olishning amalga oshirish tizimi va mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish;

– jinoyatchilikni oldini olishda sub’ektlarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish;

– huquqbuzarliklar profilaktikasi sub’ektlarini axborot bilan ta‘minlash.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlash lozimki, Respublikamiz IIV tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda bir qator olimlar va mutaxassislar xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalardan kelib chiqib, mamlakatimiz ichki ishlar organlarining tuzilishini qayta ko‘rib chiqish va politsiya tizimiga o‘tish maqsadga muvofiqligini ta‘kidlashadi. Xorijiy davlatlar ma‘muriy hududlarida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta‘minlash tajribasini ilmiy tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar istiqbolda O‘zbekistonda politsiya tizimini joriy etilishiga olib keladi.

## REFERENCES

1. O‘zбекистон Respublikasi Konstitutsiyasi -T 2022
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14--maydagi “Huquqbuzarliklar

- profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun
  6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2883-sonli qarori